NEMIS XUROFOT KONTEKSTIDA OMADSIZLIK VA BAXTSIZLIK KOMPONENTINI AKS ETTIRUVCHI FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR TADQIQI

Hafizov G'ayrat Abduhakimovich
Gyote-Institutining O'zbekistondagi filliali
Ta'lim sohasida hamkorlik bo'limi xodimi

Annotatsiya. Mazkur maqolada nemis tilidagi frazeologik birliklar tarkibida omadsizlik va baxtsizlik komponentining ifodalanishi lingvokulturologik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Frazeologizmlar xalqning qadimiy e'tiqodlari, xurofotiy tasavvurlari va ijtimoiy hayotidagi ruhiy holatlarni aks ettiruvchi muhim til hodisasi sifatida ko'rib chiqiladi. Nemis tilshunoslari Wolfgang Fleischer (*Phraseologie der deutschen Gegenwartssprache*, 1982), Hans Schemann (*Deutsches Wörterbuch der Idiome*, 1993) va Lutz Röhrich (*Lexikon der sprichwörtlichen Redensarten*, 1991) asarlarida "Schwarze Katze", "schwarzer Tag", "schwarz sehen", "Pech haben", "den Teufel an die Wand malen", "Spinne am Morgen Kummer und Sorgen", "Spinne am Abend erquickend und labend" kabi iboralar xalq xurofotidan kelib chiqqan obrazli ifodalar sifatida izohlangan. Tadqiqot natijalari frazeologik birliklarning semantik tarkibida insonning ruhiy tushkunlik, hayotiy muvaffaqiyatsizlik va taqdiriy iztiroblar kabi holatlari aks etishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: frazeologik birliklar, xurofot, omadsizlik, baxtsizlik, lingvokulturologik, folkloriy tasavvurlar, ibora, frazeologizmlar, ramz

Annotation. This article analyzes the expression of misfortune and unhappiness components within German phraseological units from a linguo-cultural perspective. Phraseologisms are considered as significant linguistic

phenomena that reflect the nation's ancient beliefs, superstitious notions, and the psychological states of social life. German linguists Wolfgang Fleischer (Phraseologie der deutschen Gegenwartssprache, 1982), Hans Schemann (Deutsches Wörterbuch der Idiome, 1993), and Lutz Röhrich (Lexikon der sprichwörtlichen Redensarten, 1991) interpret idioms such as "Schwarze Katze," "schwarzer Tag," "schwarz sehen," "Pech haben," "den Teufel an die Wand malen," "Spinne am Morgen Kummer und Sorgen," and "Spinne am Abend erquickend und labend" as figurative expressions rooted in folk superstition. The findings demonstrate that the semantic structure of these phraseological units conveys states of psychological depression, life failures, and existential distress, thereby serving as valuable sources for linguo-cultural research.

Keywords: phraseological units, superstition, misfortune, unhappiness, linguo-cultural analysis, folkloric notions, idioms, symbols, german folklore, comparative linguistics

Frazeologik birliklar tilning eng obrazli va emotsional qatlamini tashkil etib, xalqning madaniy merosi, ruhiy dunyoqarashi va ijtimoiy hayotidagi qadimiy e'tiqodlarni ifodalovchi muhim hodisa sifatida qaraladi. Nemis tilida omadsizlik va baxtsizlik komponentini aks ettiruvchi frazeologizmlar ko'pincha xurofotiy tasavvurlar bilan bog'liq bo'lib, ular xalqning tarixiy tajribasi va diniy qarashlaridan kelib chiqqan. Shu bois, bu iboralarni tadqiq etish lingvokulturologik nuqtai nazardan katta ilmiy ahamiyatga ega.

Nemis tilshunosligida frazeologiya masalalari keng o'rganilgan. Masalan, mashhur olim Wolfgang Fleischer frazeologiyani "tilning barqaror, obrazli va emotsional qatlamini tashkil etuvchi birliklar" sifatida ta'riflaydi. [5, 19-20]

Shuningdek, mashhur nemis olimi Hans Schemann nemis frazeologizmlarini uzoq yillar tadqiq qilgandan so‘ng, ularning ko‘p qismi xalq xurofotidan kelib chiqqanini yozib qoldirgan. U “Pech haben” (omadsizlikka uchrash), “Unglücksrabe” (baxtsiz qarg‘a) kabi iboralarni izohlaydi va ularning xalq orasida omadsizlik ramzi sifatida qo‘llanilishini ta’kidlaydi. [1, 45-47]

Nemis folklor tadqiqotchisi Lutz Röhrich esa xalq maqollari va iboralari orqali “qora kun”, “yomon alomat”, “qarg‘a” kabi ramzlarning baxtsizlik belgisi sifatida tilga singib ketganini tahlil qiladi. Unga ko‘ra, bu ramzlar nemis madaniyatida qadimiy xurofotiy tasavvurlardan kelib chiqqan bo‘lib, frazeologik birliklarda o‘z ifodasini topgan. [4, 112-115]

Frazeologik birliklarning semantik tarkibida insonning ruhiy tushkunlik, hayotiy muvaffaqiyatsizlik va taqdiriy iztiroblar kabi holatlari aks etadi. Bu esa ularni nafaqat tilshunoslik, balki madaniyatshunoslik va etnologiya nuqtai nazaridan ham o‘rganishga imkon beradi. Demak, nemis xurofot kontekstida omadsizlik va baxtsizlikni ifodalovchi frazeologizmlar xalqning ruhiy olami va ijtimoiy hayotini tadqiq etishda alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Omadga oid iboralar qanchalik rang-barang bo‘lsa, baxtsizlik (Pech, Unglück) bilan bog‘liq frazeologizmlar ham shunchalik ko‘p hisoblanadi. Ma’lum bir yomon alomatlar ham xalq tilida o‘z ifodasini topgan. Masalan, biz yuqorida “Pech haben” (omadsizlikka uchramoq) iborasini aytib o‘tdik. Semantik jihatdan bu yerda “pech” – aslida qora qatron deganidir, lekin xalq tilida “qora qatrondek yopishqoq balo” degan ma’noni bergan. “Pech haben” iborasi bilan ma’nodosh tarzda “vom Pech verfolgt sein” (pech ta’qibiga olinmoq) iborasi ham bor. Bu birikma mustaqil gap sifatida ishlatiladi. Masalan, “Men qayerga borsam, qanaqadir muammo chiqaveradi – go‘yoki balo meni ta’qib qiladi” (“vom Pech

verfolgt bin"). Ayrim hollarda Pechvogel (pech + qush) so'zi ishlatiladi – "boshiga faqat tashvish yog'iladigan odam"ni ta'riflash uchun. Bu yerda "qush" so'zi kinoyaviy tarzda go'yo o'sha odam boshida doim balo qushi parvoz qiladi, degan ma'no seziladi. Pragmatik nuqtayi nazardan Pechvogel so'zini birovning ahvoliga achinish yoki mazax aralash achinish ma'nosida ishlatish mumkin. [3]

Baxtsizlik keltiruvchi belgilar frazeologizmlarda ko'p uchrashini kuzatish mumkin. Shu ma'nodagi frazeologizmlarga e'tibor bersak, masalan, qora rang ko'pincha salbiy konnotatsiyaga egaligini kuzatishimiz mumkin. Bu nafaqat nemislarga, balki ko'plab madaniyatlarga xos umumiy semantik xususiyatdir. "Schwarzer Tag" (qora kun) iborasi nemis tilida "ommadsiz kun, baxtsiz kun" ma'nosida ishlatiladi. Shuningdek, schwarzsehen ("kelajakdan faqat yomonlik kutmoq") iborasi mavjud. Mazkur leksik ifoda ham qorong'ulik orqali yomon tashvish yoki musibatli kunlarni ifodalab keladi. [1, 46-47] Qora rang ichida eng "yomon belgili" hayvon tasviri esa qora mushuk ekanligini tadqiqotlarimiz davomida kuzatdik. "Schwarze Katze" obrazi bir qancha irim-sirimga oid xolatlarda kuzatish mumkin. Nemis tilida "Murr mir nicht die schwarze Katze!"(Menga baxtsizlik tilama!) kabi iboralar bilan kimningdir ko'ngilsiz, shuursiz yomonlik keltirishi nazarda tutiladi. Lekin eng ko'p tarqalgani qora mushukning yo'l kesib o'tishi barchamizga ma'lum. Bu irim nafaqat nemislarda, balki butun Yevropa va boshqa xalqlarda ham kuzatish mumkin. [4, 112-115]

"Den Teufel an die Wand malen" (shaytonni devorga chizmoq) frazeologizmidir. Bu ibora evfemistik ogohlantirish vazifasini o'tab keladi. Masalan, keraksiz yomon gaplarni og'zingga olma, yomonlikni chaqirma degan ma'no yotadi. [4, 210-212] Masalan, kimdir "Ertaga imtihondan yiqilsam kerak" desa, suhbatdoshi norozi ohangda "Höre auf! Male nicht den Teufel an die Wand."

deydi – ya'ni, "Bas qil, shaytonni devorga chizaverma". Bu frazeologizmda "yomon bashorat qilmangiz, baloni o'zingizga yaqinlashtirmangiz"ma'nosi totadi. Bu iboraning kelib chiqishi diniy e'tiqod bilan bog'liqligini ko'rishn mumkin. Devorda shayton suratini chizish va u haqda ochiq gapirish, shu orqali uni chindan ham chaqirib olish degan qo'rquv in'ikosidir. Nemis cherkov hikoyatlarida "shaytonni eslasang – paydo bo'ladi" degan tushuncha bo'lgan. Bu hatto vaqtlar o'tib maqolga ham aylangan: "Wenn man vom Teufel spricht, ist er nicht weit" – "Shayton haqida gapirsang, u uzoqda emas (darrov hozir)". "Den Teufel an die Wand malen" frazeologizmi mana shu ma'noni kuchliroq obraz – devorga rasm chizish orqali ifodalaydi. Pragmatik funksiyasi suhbatdoshni ta'zirini berish, "jim bo'l, bunday deyish yaramaydi" mazmunida taqiqlashdir. [2]

Yuqoridagi frazeologik misollardan ko'rinib turibdiki, nemis tilida xurofotga oid ifodalar ba'zan idiomatik birikma shaklida ifodalanadi (masalan, Schwein haben, Pechvogel, den Teufel an die Wand malen kabilar), ba'zan esa og'zaki ogohlantirish tarzidagi yarim gap ko'rinishida keladi. Masalan, Schwarze Katze! deb bir so'z bilan baloni eslatish yoki toi-toi-toi kabi gap bo'lmagan iboralar. Ularning barchasida chuqur konnotativ qatlam mavjud. Bular orqali xalq ongidagi qadimiy qarashlar u yoki bu yo'sinda namoyon bo'ladi. Pragmatik vazifalari asosan biror hodisani yaxshi niyat bilan qo'llab-quvvatlash (omad tilash), yoki aksincha, ogohlantirish va himoyalanish (yomonni chaqirmaslik, ehtiyot bo'lish) kabi vazifalarni bajarib keladi. Semantik jihatdan tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, frazeologik xurofot birikmalar ko'pincha metaforik va jonlantirish (personifikatsion) xarakterga ega bo'ladi. Yaxshi hodisalar talisman (tumor) sifatida, yomon hodisalar esa yovuz kuch yoki balo sifatida gavdalanadi. Tuzilish nuqtayi nazaridan, bunday iboralar odatda og'zaki tilda kinoyalar yoki qo'shma

so'zlar ko'rinishida keladi va aksar hollarda ritmik va qofiyali shaklga ega bo'lishi ham mumkin. Masalan, Spinne am Morgen Kummer und Sorgen, Spinne am Abend erquickend und labend (Ertalab o'rgimchak – g'am va tashvish, kechqurun o'rgimchak – quvonch va rohat) kabi xalq orasidagi qofiyali ibora. [4, 389-391]

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, nemis xurofot kontekstida omadsizlik va baxtsizlikni ifodalovchi frazeologik birliklar xalqning ruhiy olami, qadimiy e'tiqodlari va madaniy merosini chuqur aks ettiradi. Ular tilning obrazli qatlamini boyitibgina qolmay, insonning hayotiy iztiroblari, muvaffaqiyatsizliklari va taqdiriy tushkunliklarini ramziy shaklda ifodalashga xizmat qiladi.

Tilshunos olimlar Wolfgang Fleischer va Lutz Röhrich o'z tadqiqotlarida frazeologizmlarning xalq xurofotidan kelib chiqqanligini, ular orqali "qora kun", "baxtsiz qarg'a", "omadsizlik ta'qibi" kabi ramzlarning tilga singib ketganini ta'kidlaydilar. Bu fikrlar frazeologizmlarni lingvokulturologik tadqiqotlarda muhim manba sifatida ko'rishga asos bo'ladi.

Shunday qilib, nemis tilidagi omadsizlik va baxtsizlik komponentini aks ettiruvchi frazeologik birliklar nafaqat tilshunoslik, balki madaniyatshunoslik, etnologiya va qiyosiy tadqiqotlar uchun ham katta ilmiy ahamiyatga ega. Ularni o'rganish orqali biz xalqning ruhiy dunyosini, qadimiy xurofotiy tasavvurlarini va milliy tafakkurini yanada chuqurroq anglash imkoniga ega bo'lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Hans Schemann, Deutsches Wörterbuch der Idiome, München, 1993.
2. https://www.dwds.de/wb/den%20Teufel%20an%20die%20Wand%20malen
3. https://www.tz.de/welt/freitag-der-13-bedeutung-aberglaube-ursprung-pech-unglueck-mysterium-unheil-91533477.html
4. Lutz Röhrich, Lexikon der sprichwörtlichen Redensarten, Freiburg, 1991.
5. Wolfgang Fleischer, Phraseologie der deutschen Gegenwartssprache, Leipzig, 1982.